Registered in Germany **Europa Revue Journal**
ISSN: 1862-6564 **Vol. 6 No. 6 (2026) Published June 28, 2026**

HADITH AND ITS TYPES

Xazratqulov Alisher

Senior Lecturer, Department of Languages-1, Oriental University

Abstract

This article discusses the origin of the science of Hadith, its development, and its significance in Islamic studies. It explains the relationship between the science of Hadith and the Holy Qur'an, as well as the role of the Sunnah of the Prophet Muhammad (peace and blessings be upon him) in preserving religious practices and teachings. The article also provides important information on the methodological foundations, terminology, and various types of Hadith. It serves as an important theoretical and practical resource for those interested in Islamic studies, researchers, and students seeking to study the science of Hadith.

Keywords

Qur'an, Hadith, methodology, Hasan Hadith, Da'if Hadith, Mutawatir, Musnad.

HADIS VA UNING TURLARI

Oriental universiteti "Tillar-1" kafedrasi katta o'qituvchisi

Xazratqulov Alisher

Annotatsiya: Bu hadis ilmining kelib chiqishi maqolasi, ishlab chiqarish jarayoni va uning Islom imlari haqida ma'lumot beradi. Unda hadis ilmining Qur'oni Karim bilan aloqasi, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlari orqali diniy amaliyot va ta'limotlarni kuzatishdagi o'rni yoritilgan. Maqola hadis ilmining metodologik asoslari, istilohlari va uning turli turlari haqida ham muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. Ush Islom ilmlariga qiziquvchilarni o'rganish, tadqiqot qilish hadis ilmini o'rganishga intilayotgan talabalarga muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tayanch iboralar: qur'on, hadis, usul, hasan hadis, zaif hadis, mutavotir va musnad.

Hadis ilmi islomiy ilmlarning eng muhim tarmoqlaridan biridir. U Qur'oni karim bilan chambarchas bog'liq bo'lib, Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning so'zlari, amallari, sifatlari va taqrirlari (iqrorlari)ni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu ilmning

vujudga kelishi va rivojlanishi Islom tarixining ilk davrlaridan boshlanadi. Alloh taolo Qur’oni karimni insoniyat uchun mukammal hidoyat manbai sifatida nozil qilgan. Rasulullоh sollallohu alayhi vasallam esa ushbu ilohiy kitobni amalda tatbiq etib, musulmonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatganlar.

Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamning har bir so‘zlari va amallariga katta ahamiyat berilgan. U zotning hayot tarzi, odatlari va pand-nasihatlari mo‘min-musulmonlar tomonidan puxta o‘rganilib, avloddan avlodga yetkazib kelingan. Shu bois hadislar diniy ta’limotlar, ibodatlar va kundalik hayotdagi amaliy masalalarni tartibga solishda asosiy manbalardan biri sifatida qabul qilingan.

Hadisi shariflar Qur’oni karim bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli hadisi nabaviy tarixi ham Qur’oni karim va Islom tarixi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi. Biz esa hadis ilmining shakllanish tarixini o‘rganishdan boshlaymiz. Alloh taolo Muhammad sollallohu alayhi vasallamga Qur’oni karimning ilk oyatlarini nozil qilib, u zotni oxirgi payg‘ambar deb e’lon qildi. Muhammad sollallohu alayhi vasallamning payg‘ambarliklariga iymon keltirmagan kishi haqiqiy mo‘min bo‘la olmaydi. Mo‘minlarning u zotga ergashishlari va iqtido qilishlari lozim bo‘lgan amallardandir.

Qur’oni karimning “Hadid” surasi 7-oyatida: “Allohga va Uning Rasuliga iymon keltiring”, deb marhamat qilingan. Yuqorida zikr etilganidek, bu haqiqat Alloh taolo tomonidan Qur’oni karimda qayta-qayta ta’kidlangan. Islomning ilk kunlaridan boshlab mo‘min-musulmonlar kattayu kichik har bir masalada o‘z payg‘ambarlaridan ta’lim ola boshladilar. Ular Qur’oni karim oyatlaridan tortib, oddiy tahorat olish tartibigacha bo‘lgan barcha diniy ko‘rsatmalarni Rasulullоh sollallohu alayhi vasallamdan o‘rganib bordilar. Shu sababli Muhammad sollallohu alayhi vasallam muborak hayotlarining biror lahzasi ham sahobai kiromlarning diqqat-e’tiboridan chetda qolmagan.

Hadis so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari mavjud. Alloma Javhariy rahimahulloh o‘zining “As-Sihah” asarida: “Hadis ozmi-ko‘pmi bir xabardir”, deb ta’rif bergan. Arab tilida biror kishi tomonidan yetkazilgan xabar “hadis” deb ataladi.

Hadisning istilohiy ma’nosi haqida usul, kalom va hadis olimlari turlicha fikr bildirganlar. Biroq bu ixtilof haqiqiy emas, balki e’tiboriy yoki lafziy ixtilof hisoblanadi.

Alloma Tohir ibn Solih al-Jazoiriy rahimahulloh o‘zlarining usul al-hadis borasidagi “Tavjix an-nazar ila usul al- asar” nomli kitoblarida ushbu ixtilofning hadis ta’ri fida bo‘lganligini qayd etganlar[1]. Bundan ko‘rinadiki, bir emas, bir necha olimlar xilma-xil fiklar bildirib kelganr, bu o‘z navbatida o‘rginilayotgan masalani muhimligini bildiradi.

Usuli fiqh sohiblari hadisga Rasulullоh (s.a.v.)ning so‘zlari va fe’llari deb ta’rif berishgan. Ularning nazarida, ixtiyoriy fe’llari hadisga kiritiladi, ammo ixtiyorsiz amallar hadisga kiritilmaydi. Ixtiyorsiz amallar degani Rasulullоh (s.a.v.)ning muborak chehralari, siyratlari, tug‘ilishlari kabi narsalar bo‘lib, bu narsalar Ul zotning o‘z ixtiyorlari bilan sodir bo‘lmagan.

Muhaddislar esa ixtiyoriyni ham, g‘ayriixtiyoriyni ham hadisga kiritadilar. Rasulullоh (s.a.v.)dan rivoyat qilingan barcha xabarlar hadisga doxil bo‘ladi deydilar. Demak, hadisga berilgan muhaddislarning ta’rifi bunday: “Rasulullоh (s.a.v.)ning gar-so‘zla- ri, fe’llari, hollari va sifatlari, hatto harakat va sukunatlari hadisdir”. Bu ta’rif muhaddislar tomonidan aytilgan ta’rif bo‘lib, usul va fiqh ilmidagi ta’riflardan kengroq ma’noni ifoda etadi. Bu ta’rif bo‘yicha ixtiyoriy va g‘ayriixtiyoriy ishlar ham hadis ostiga kiradi. Muhaddislarning maqsadi hukmlar istinbot qilish emas, balki barcha hadislarni to‘rlashdir.

Hofiz Saxoviy (vafoti m. 1497) o‘zining “Fath al-mug‘iys” nomli kitoblarida: “hadis so‘zining lug‘aviy ma’nosi qadimning aksi”, degan, istilohda esa: “Rasulullоh (s.a.v.)ga bog‘lanadigan narsalar — u zoti sharifning garlari bo‘lsin, fe’llari bo‘lsin, taqrir (iqrorlari) yoki sifatlari bo‘lsin, hatto bedorlik va uyqudagi harakatlari va sukunatlari bo‘lsin, bularning barchasi hadisdir”[2],– deganlar. Bu ta’ridan hadis shunchaki gar-so‘z emas balki rayg‘ambarimizga tegishli bo‘lgan bir necha ishlar tushinishini bildiradi.

[1] Toxir ibn Solih al-Jazoiriy. Tavjix an-nazar ila usul al-asar. Misr: Jamoliya, 1910.-B. 2-4.

[2] Shamsiddin as-Saxoviy. Fatx al-mutis bi-sharx Alfiyat al-xadis. 1–jild. Riyoz Dor al-Minhoj, 2005. — B.14.

Hofiz ibn Hajar (vafoti m. 1449) o‘zlarining “Fath al-Boriy” nomli kitoblarida hadisni qadimning aksi sifatida baholab, “Qur’on — Allohning kalomi, u esa qadimdir, ya’ni ibtidosi yo‘q azaliy sifatdir. Hadisga esa yangi, ibtidosi borligidan kelib chiqib nom qo‘yilgan”, degan. Bu yuqoridagi gardan ham chuqurroq ma’noga ega bo‘lib, gar o‘laroq Quo‘oni karim bilan bo‘lgan farqiga ishora qilinmoqda.

Hadis ilmining ta’rifi: Alloma Badriddin Ayniy (r.a) “Sahihi Buxo- riy”ga yozgan “Umdat al-qori” asarida hadis ilmiga shunday ta’rif bergan: “Rasulullоh (s.a.v.)ning garlari, fe’llari va ahvollari bilinadigan ilmdir”[3]. Bu ta’rifda ijmoliy (qisqa bayon yilish) tarzda aytilayotgan bo‘lsada, asli juda katta mavzularni qamrab olgan. Zero “Garlari” deganda qovliy hadislar va uning turlari nazarda tutiladi, “Fellari” deganda ibodat va undan boshqa amaliy ishlari tushiniladi, “Ahvollari” deganda sifatlari va boshqalar tushiniladi.

Mazkur ta’rif hadis ilmi haqida umumiy ma’lumot bersa-da, biroq unga mavquf va maqtu’ hadislar kirmay qolgani sababli unchalik keng qamrovli emasligini tadqiqotchilar aniqlaganlar. Shuning uchun “Fath al-Bokiy sharh Alfiya al-Iroqiy” asarida quyidagi ta’rif o‘rtaga tashlangan: “Rasulullоh (s.a.v.)ga yoki sahobiyga yoki undan rastroqdagilarga gar, fe’l, sifat yoki taqrir o‘laroq bog‘lanadigan narsalarni tanish”. Bulardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, islomni avvalidagi uch asr (salafi solih) allomalarini qilan sa’iy-harakatlarini o‘rganish va unga bog‘lanish deb tushinamiz

Hadis ilmining turlari. Hadis ilmining navlari borasida muhaddis Ibn al-Akfoniy o‘zining “Irshod al-qosid” degan kitobida hadis ilmi ikki qismga bo‘linishini yozadi.

Birinchisi ilmi rivoyat al-hadis (hadisni rivoya qilish ilmi), ikkinchisi ilmi diroyat al-hadis (hadisni anglash, tushinish ilmi).

Ilmi rivoyat al-hadisning ta’rifi bunday: “U Rasulullоh (s.a.v.)ning garlari ni, fe’llarini va holatlarini muttasil eshituv bilan qilingan naqlini bilmoq va ularni egallash va yozishdir”[4]. Ya’ni, Rasulullоh (s.a.v.)ning so‘z lari, fe’llari va hollari naqlini bevosita eshitish bilan bilish. Ularni yozish hamda tahrir qilish bilan birga hadis

[3] Badriddin al-Ayniy. Umdat al-kori sharhi Sahih al-Buxoriy. 25-jild. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2001. B.33.
[4] Ibn al-Akfoniy. Irshod al-kosid. Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1990. – B.155.

rivoyati ilmining ta’rifi tushiniladi. Bu yerda hadisdan hukmlar chiqarish, hadisning sahihligi, zaifligi borasida bahs qilinmaydi.

Endi hadis diroyati ilmining ta’rifi bunday: “U rivoyat turlarini, ularning hukmlarini, roviylarning shartlarini, rivoyat qilinganlarni qismlarga ajratishni va ularning ma’nolarini chiqarishni bildiradigan ilmdir”[5]. Ya’ni, ushbu ilmi diroyat al-hadis shuki, u bilan rivoyatning turlari va ulardan ahkom olish nav’lari, roviylarning shartlari bilinadi. Roviylarning o‘ziga yarasha shartlari, ishonchli yoki ishonchsiz ekanliklari bor, ana o‘shalar bilinadi. Shuningdek, rivoyatlarning sinflari sahih, hasan yoki zaif kabilar va ularning ma’nolarining anglash, ya’ni qanday qilib ahkom olish kabilar o‘rganiladi.

Hadisni islomda tutgan o‘rni. Alloh taolo Kitobni asrab-avaylashni O‘z zimmasiga olgan va O‘zining payg‘ambari (s.a.v.)ga risolatni yetkazish va hikmatni saqlashni, odamlarga nozil qilingan narsani bayon qilishni va ularni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qilishni torshirgan.

“U zot risoladagi vazifalarini bajarib, xalqqa nasihat qilib, ularga Qur’onni o‘qib, uni asrab-avaylash, yodlash va o‘z hukmronligi davrida mavjud bo‘lgan barcha vositalar bilan yozma ravishda tasdiqlash uchun harakat qildilar. Hamrohlarining qalbiga hikmatni yoyib, ularga hidoyat qonunini tushuntirib, ularga yaxshi narsalar halol va harom narsalarni tushuntirib berdi. Rarvardigorining ta’limotlarini ularga yetkazish uchun ko‘r mehnat qildilar va g‘oyib bo‘lgan guvohga xabar berishni buyurdilar va uning garini tushungan kishiga yaxshilik tilab duo qildilar, shuning uchun uni eshitganlaridek bajardilar va ularga xabar berishni buyurdilar. Unga qasddan yolg‘on so‘zlagan har bir kishiga do‘zax azobini va’da qilgan”[6]. Islomni avvalidanoq hadislarni o‘rganish va talqin qilish sharafli bo‘lishi bilan bir qatorda, juda katta masuliyat va omonat deb qaralgan.

Hadis ilmi maktablarning vujudga kalishi. Birinchi asrda islomiy shaharlarda Hadis ilmi maktablari raydo bo‘lgan, ular hijratning vatani, birinchi xulofoi roshidunlar

[5] Ibn al-Akfoniy. Irshod al-kosid. Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1990. – B.156

[6] D.Muhammad al-Muxtor Vuld Abboh. Tarix al-ulumil hadis ash-sharif fil Mashriqi val Mag‘rib. – Mag‘rib: As-Saqofa, 2010. – B.9

(to‘t xalifa) davrida xalifalik roytaxti, muhojir va ansorlar, sahoba va ulamolar maskani bo‘lgan Madinada boshlangan. Xalifalar olomon hadis hofizlari bilan o‘ralgan edi, ularning iboralari hamon quloqlariga to‘lib, manzaralari ko‘z o‘ngida edi.

Sahobalarning sunnatga bo‘lgan munosabatlarini muarrix D.Abboh shunday keltiradi: “Ular o‘zlarining umumiy xulq-atvorini Muhammad alayhis salomdan eshitganlari, harakatlari va sifatlaridan ko‘rganlariga asoslashdi. Ular bu ilmni yo‘qotib qo‘yishdan xavotirga tushganlaridan keyin xalifa Umar ibn Xattobdan hadisni yozib berishni so‘radilar, lekin u istixora qilib ko‘rib, bunga izn bermadi, Alloh taoloning kitobiga biror narsa aralashib qolishidan ehtiyot bo‘ldi”. Demak, sahobalar harqanday hadisga omonat va masuliyat o‘laroq qaraganlar va boshqalarni berarvo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymagan. Xadislarning yozilishi. Rasulullox (s.a.v.) Qur’oni karimning xar bir oyatini yozdirib borish barobarida, avvalda sahobalarni xadislarni yozishdan kaytargandlar. Bunda asosan Qur’onga boshqa garlar aralashib ketishining oldini olish, musulmonlarning Qurondan chalg‘ishlariga yo‘l qo‘ymaslik kabi sabablar nazarda tutilgan edi. Qolaversa, yozish uchun kerakli vositalar bo‘lmas, agar ular torilsa ham, yozishni biladigan sahobalar ancha kamyob edi. Agar bor imkoniyat Quronga qaratilmasa, ayrim muammolar kelib chikishi mumkin edi. Shu bilan birga, Qur’oni karim oyatma-oyat, ma’lum mikdorda nozil bo‘lsa, xadislar har qadamda sodir bo’lardi. Eng asosiysi, sahobalar boshqa arablar qatori ma’lumotlarni asosan yodda saqlashga o’rgangan edilar. Ular uchun yozuvning axamiyati uncha katta emas edi. Ammo, bu Nabiy (s.a.v.) davrlarida hadislar umuman yozilmagan, degani emas. Rasulullox (s.a.v.) keyinrok, mazkur muammolarning bir qismi bartaraf bo’lgach, ba’zi sahobalarga xadislarni yozishga izn berganlar va o’zlari ham hisob-kitobga oid ayrim xadislarni yozdirganlar. Misol uchun, Abdulloh ibn Amr ibn Oss (vafoti m. 684–685) hadislarni yozib borardilar va u kishining saxifalar to’rlamini “Sodiqa” “Rostguy” deb atashardi. Abu Hurayra (r.a.)dan (vafoti m. 678) kuyidagicha rivoyat qilinadi: “Rasulullox (s.a.v.)ning hadislarini mendan ko’ra yaxshiroq biladigan birorta ham kishi yo’q. Abdulloh ibn Amr mustasno, chunki u yozar edi, men esa yozmas edim”. Axmad va Bayxakiy rivoyat qilgan. Bundan ko‘rinadiki, hadislarni yozish o‘sha vaqtni o‘zida ommalashgan bo‘lmasada, ayrim sahobalar yozib borgan va bu ish

boshqalardan maxfiy bo‘lmagan, rayg‘ambarimiz tomonlaridan o‘zil-kesil ta’qiq ham qo‘yilmagan.

Hadislarni to‘rlash va yozish Qur’oni karimning jamlanishi nihoyalanib, qorilar keo‘rayib, u hadislar bilan aralashib ketish xavfi bartaraf bo‘lgach o‘rtaga chiqdi. Bu masalaga jamoatchilik tomonidan e’tibor qaratildi. “Hijriy birinchi asrning oxiriga borib, sahobalarning kurlari vafot etib ketgani va boshqa sabablarga ko‘ra hadislarning yuq bulishi xavfi tug‘ildi. Buni o‘z vaqtida anglab etgan buyuk xalifa Umar ibn Abdulaziz (xalifaligi h. 99-101, m. 717-719) xadislarni yozishga va jamlashga rasmiy ravishda buyruq berdi. Bu bilan u xadislarni jamlashga birinchi bo‘lib tashabbus kilgan shaxs sifatida tarixda qoldi”[7]. Shundan so‘ng xadislarni yozma ravishda jamlash ishlari keng quloch yoydi. Islom olamining barcha yerlarida bunga bel bog‘lagan ulamolar etishib chiqdi. Makkada birinchi bo‘lib hadis jamlagan kishi Ibn Jurayj (vaf. 150 h.), Madinada Molik ibn Anas (vafoti m. 795) bo‘ldi.

Basrada Hammod ibn Salama (vafoti m. 783), Kufada Sufyon Savriy (vafoti m. 778), Shomda Abu Amr Avzoviy (vafoti m. 774), Xurosonda Abdulloh ibn Muborak Marvaziy (vafoti m. 797), Yamanda Muammar va boshqalar hadis to‘rlash bilan tanildilar.

Dastavval hadislarni yozishda asosan ularni qaydlash nazarda tutilgan edi. Shuning uchun ularda ma’lum tartibga amal kilinmas edi. Ilk bor bitilgan xadis kitoblari “Jomi’” (jamlovchi) va “Musannaf” (bitik) shaklida yozildi. Ularda turli mavzularda torilgan hadislar jamlandi. Bunga Sufyon ibn Uyaynaning (vafoti m. 813) “Jomi’”i va Aburrazzoqning (vafoti m. 826) “Musannaf”ini misol qilish mumkin. Shu bilan birga, bu davr hadis kitoblarida Rasulullоh (s.a.v.)ning hadislari sahobalar so‘zlariga va tobeinlarning fatvolariga aralash holda jamlanavergan. Bu xolat imom Molikning “Muvatto”sida aniq ko‘zga tashlanadi.

Uchinchi hijriy asr hadis ilmining gullab-yashnagan oltin davri bo‘ldi. Bu vaqtda hadislarni yozish, ularni jamlash, tartibga solish va sahihlarini boshqalaridan ajratish ishlari oxiriga etkazildi. Shuningdek, aynan shu asrda sahobalar va tobeinlarning fatvolarini aralashtirmay, faqat Rasulullоh (sollallohu alayhi vasallam)ning hadislarini

[7] Oltin silsila Sahihul Buxoriy. Tahririyat kengashi: M. Ahmadjonov (va boshq.) –T.:Hilol-Nashr, 2012. – B. 25

yig‘ib, ularni rivoyat kilgan sahobalarning nomlari ostida bir bobda jamlash boshlandi. Natijada “musnad” deb nomlangan hadis kitoblar vujudga kaldi. Bu borada birinchi bo‘lib Abu Dovud Tayolisiy (vafoti m. 795) “Musnad at-ayolisiy”ni, Imom Ahmad ibn Hanbal (vaf. 856 h.) o‘zining “Musnad”ini yozdi. Ibn Hanbalning “Musnad”i musnadlar ichida eng mashhuri, eng kattasi va foydasi eng ko‘ri xisoblanadi. Ammo musnadlarda sahih hadislar ham, sahih bo‘lmaganlari ham bor edi.

“Nihoyat, hadis ilmida mo‘minlar amiri, muhaddislar reshvosi Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vafoti m. 870) hadis jamlashda yangi bir yo‘nalishga asos soldi: faqat sahih hadislarni o‘z ichiga olgan “Al-Jome as-saxix” kitobini yozdi va unda hadislarni boblarga ajratib, tartibga soldi. Keyin imom Buxoriyning shogirdi imom Muslim (vafoti m. 875) ham ustozi yo‘lidan borib, o‘zining mashhur kitobi “Sahihi Muslim”ni yozdi va bu kitob “Sahihul-Buxoriy”dan keyingi maqomni egalladi. Ushbu ikki hadis to‘rlami musulmonlar tomonidan bir ovozdan Kuroni karimdan keyingi eng to‘g‘ri, ishonchli kitoblar deya tan olindi”[8]. Mana shu yunalish boshqa muhaddis olimlarga hadis ilmida qilinishi zarur bo‘lgan bir yo‘lni ochib berdi. Endilikda hdisni o‘rganmoqchi bo‘lganlar sanadlari (hadis matnigacha bo‘lgan roviylar keta ketligi) va istinboti (undan olinadigan hukmlari) bilan qiziqishlari ortib bordi.

Hadis ilmiga oid ensiklorediya yaratilishi. Bu bosqichda shunga qadar qilingan ishlarni tizimlashtirish. Kimdir roviylar ro‘yhatini, yana kimdir hadisga oid kitoblar ro‘yhatini tuzib chiqadi”[9], deb keltirgan. Qo‘shimcha fikrlar bildirib o‘tgan. Hadis ilmi bosib o‘tgan davrlar biri boshqasini tugatish ustiga bo‘lmagan, aksincha avvalgi bosqichdagi ishlarni takrorlashbilan qo‘shimcha ishlar olib borilgan.

Hadis ilmining shakllanishi va rivojlanishi haqida so‘z yuritar ekanmiz, hadislarning Qur’on bilan chambarchas bog‘liqligini va Islom tarixining muhim qismiga aylanishini ta’kidlash kerak. Hadislar, Muhammad (s.a.v.)ning so‘zlari, amallari, ta’riflari va hikmatlaridan iborat bo‘lib, ular Islom ahkomlarini tushunish va amal qilish uchun muhim manba hisoblanadi.

[8] Oltin silsila Sahihul Buxoriy. Tahririyat kengashi: M. Ahmadjonov (va boshq.) –T.:Hilol-Nashr, 2012.
[9] D.Muhammad al-Muxtor Vuld Abboh. Tarix al-ulumil hadis ash-sharif fil Mashriqi val Mag‘rib.- As-Saqofa Mag‘rib, 2010. B. 11–13

Hadisning yozilishi. Rayg‘ambarimizning (sollallohu alayhi vasallam) vafotidan keyin hadislarni yozishga ehtiyoj sezila boshlandi. Xalifa Umar ibn Abdulaziz (r.a.) (xalifaligi h. 99-101, m. 717-719) hadislarni yozish va jamlashga rasmiy ravishda buyruq berdi. Shundan so‘ng, hadislar yozila boshlandi va turli usullar bilan yig‘ilgan hadislar jamlanib, bir necha asrlar davomida ularning to‘g‘riligi tekshirildi. Hadislarning jamlanishi va ta’siri.

Hijriy birinchi asrning oxirida hadislarning yozilishi va to‘rlanishi muhim jarayon sifatida boshlanib, hadis ilmining ilmiy an’analarini yaratdi. Bu davrda, hadislarni faqat Rasulullоh(s.a.v.)ning so‘zlari bilan cheklab qo‘ymay, ularning faollari, so‘zlari va tasdiqlari ham yoziladigan bo‘ldi. Hadislarni jamlash va tasniflash ishlari Islom tarixining muhim bir bosqichi bo‘lib, buning natijasida ko‘rlab ilmiy asarlar yaratildi, masalan, Imam Buxoriy va Imam Muslimning sahih hadislar to‘rlamlari.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1- Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: sano-standart, 2019. –604 b.

2- Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 1-J.- Movarounnahr Toshkent, 2005. – 278 b.

3- Abu Nasr Ismoil ibn Hammod al-Javxariy. As-Sixox toj al-lug‘at va Sihoh al-ara-biya. Bayrut: Dor al-ilm lil-muloyin, 1990. – 670 b.

4- Ibn al-Akfoniy. Irshod al-kosid. Qohira: Dor al-fikr al-arabiy, 1990. – 480 b.

5- Ibn Xajar al-Askaloniy. Fath al-Boriy. 1-jild. Riyoz: Doru Tayyiba, 2005. — 746 b.

6- Badriddin al-Ayniy. Umdat al-kori sharhi Sahih al-Buxoriy. 25-jild. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2001. — 836 b.

7- D.Muhammad al-Muxtor Vuld Abboh. Tarix al-ulumil hadis ash-sharif fil Mashriqi val Mag‘rib. – Mag‘rib: As-Saqofa, 2010. – 650 b.

8- Oltin silsila Sahihul Buxoriy. Tahririyat kengashi: M. Ahmadjonov (va boshq.) – T.:Hilol-Nashr, 2012